

**IKROM OTAMUROD POEZIYASIDA LIRIK QAHRAMON TALQINI
THE INTERPRETATION OF LYRICAL HERO IN THE POETRY OF IKRAM
ATAMURAD**

Salima Jumayeva,
O‘zbekiston davlat jahon tillari
universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi
[E-mail salimajumayeva@gmail.com](mailto:salimajumayeva@gmail.com)

***Annotatsiya.** Maqolada o‘zbek poeziyasining bugungi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shib kelayotgan taniqli shoir Ikrom Otamurod lirikasi haqida so‘z boradi. Shoir lirikasi tom ma‘nodagi novator ijod mahsuli sifatida ko‘zga tashlanadi. Bu novatorlik adib poeziyasining tashqi belgilarida – mavzular ko‘lamida, obrazlar tizimida, vaznidagina emas, balki ichki mohiyatida, g‘oyaviy yo‘nalishida, estetik idealida, hayotni aks ettirish prinsiplarida namoyon bo‘ladi. Muallif Ikrom Otamurod poeziyasi zamiridagi lirik qahramon talqiniga xos xususiyatlarni tahlil etgan.*

***Kalit so‘zlar:** she‘r, mavzu, misra, so‘z, tasvir, ma‘no, ifoda, talqin.*

***Annotation.** The article talks about the lyrics of the well-known poet Ikram Atamurod, who has made a significant contribution to the development of Uzbek poetry today. The poet's lyrics stand out as a product of innovative creativity in the literal sense. This innovation is manifested not only in the external features of the writer's poetry - the scope of themes, the system of images, and its weight, but also in its inner essence, ideological direction, aesthetic ideal, principles of life reflection. The author analyzed the characteristics of the interpretation of the lyrical hero at the core of Ikram Atamurod's poetry.*

***Key words:** poetry, theme, line, word, image, meaning, expression, interpretation.*

***Аннотация:** В статье говорится о лирике известного поэта Икрама Атамуро́да, внесшего значительный вклад в развитие узбекской поэзии сегодня. Лирика поэта выделяется как продукт новаторского творчества в прямом смысле слова. Это новаторство проявляется не только во внешних особенностях поэзии писателя - объёме тем, системе образов, её весе, но и во внутренней сущности, идейной направленности, эстетическом идеале, принципах отражения жизни. Автор проанализировал особенности интерпретации лирического героя, лежащие в основе поэзии Икрама Атамуро́да.*

***Ключевые слова и фразы:** стихотворение, тема, стих, слово, образ, смысл, выражение, интерпретация.*

Adabiyot jonli tarix bo‘lgani singari lirika ham inson hissiy – ruhiy olamning tarixi, uning tadqiqi, tahlili va talqini uchun xoslangan janr sanaladi. O‘zbek poeziyasining bugungi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shib kelayotgan taniqli shoir Ikrom Otamurod lirikasi tom ma‘nodagi novator ijod mahsuli sifatida ko‘zga tashlanadi. Bu novatorlik adib poeziyasining tashqi belgilarida – mavzular ko‘lamida, obrazlar tizimida, vaznidagina emas, balki ichki mohiyatida, g‘oyaviy yo‘nalishida, estetik idealida, hayotni aks ettirish prinsiplarida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotshunoslikda lirik qahramon “*men*”, “*sen*” va “*u*” davrlararo sifat o‘zgarishlarini boshdan kechiradi, degan nazariy qarashlar mavjud [1:256; 361, 372, 385]. Tarixiy taraqqiyot, ijtimoiy ong rivoji, muayyan tarixiy sharoit unda shunday aks etadi. Shu ma’noda, Ikrom Otamurod lirik qahramoni xalq va Vatan o‘tmishi – tarixga aloqadorlikni yorqin anglashi bilan ajralib turadi. Unda bugun orqali tarix, tarix orqali bugun va kelajak istiqbolni tasavvur etish kuchli. Shuningdek, shoir she’riyatidagi lirik qahramon Vatan tuyg‘usiga falsafiy yondashadi – u ilg‘or va madaniy Ong bilan voqelikka, taraqqiyotga hamda o‘tmishga o‘z munosabatini bildirishga qodir shaxs. Shundan u bedor va mas’ul qalb bilan:

...Vatan –

sof,

pokiza,

beg‘ubor umid

ruhimda mug‘jalab barg yozgan dunyo.

Taxlari buzilmagan o‘ylarga cho‘mib,

gardlarin ruhimga qilgum to‘tiyo. [2:11]

deya o‘zi tug‘ilib o‘sgan ona zamin gardlarini ruhi-yuragiga to‘tiyo qilishdan faxr hissini tuyadi. Sof, pokiza, beg‘ubor umid egasi, xalqi va Vatani o‘tmishidagi barcha ezgulik va yaxshiliklar merosxo‘ri ekanligini teran angelaydi.

Ikrom Otamurod ijodida Vatan va millat kechmishi, o‘tmishi va kelajagi haqida yaratgan she’r, doston va balladalari talaygina. Uning “Sopol siniqlari”, “Yobondagi yolg‘iz daraxt”, “Xaritaga tushmagan joy” kabi dostonlari, “Ulug‘bekning o‘limi”, “Norjon momo”, “Dasht odamlari” singari balladalari va bir qator she’rlari fikrimiz dalilidir.

Shoir “Vatan so‘zin” she’ridagi lirik qahramoni qiyofasida Vatan so‘zin bo‘laklarga bo‘lmasdan “borcha bor”ligi bilan sevgan, “nisbatlarga chog‘lamasdan”, “kangul” borlig‘i ila mehr qo‘ygan, “yolg‘onlarga chulg‘amasdan”, “kangul rostligin baxshida qilguvchi”, “quroq ilinjlardan kanglu qaqshovchi”, kangul mohiyatiga Vatan so‘zini mujassam etuvchi fidoiy zamondoshimizning “men”ini tasvirlaydi:

Vatan so‘zin tustlamasman tustlarga,

yolg‘onlarga chulg‘amasman hech qachon,

Faqat, borcha bor rostligin hislarga

kanglum rostligin baxsh qilgayman har on.

Vatan so‘zin yo‘ymagayman xillarga,

yo‘rig‘larga etmagayman roy, billo.

*Faqat, borcha bor nigohin bilarga
kanglum nigohi-la qarayman illo.*

*Vatan so‘zi – kanglum mohiyati, bas,
quroq ilinjlardan kanglum qaqshaydi.
Kanglumda Vatan so‘zigina emas,
kanglumda Vatanning o‘zi yashaydi...[3:22]*

Anglashiladiki, sun‘iylik, jimjimadorlik, soxta tuyg‘ulardan yiroq lirik “men” *“kangluda Vatan so‘zigina emas, Vatanning o‘zi yashaydi ...”*. Chunonchi, she‘rning lirik qahramoni – shoirning o‘zi. Professor D.Quronov ta’kidlaganidek, “lirik qahramonni shoirdan mutlaqo boshqa hodisa sifatida tushunish ham to‘g‘ri emas: u shoir shaxsi bilan bog‘liqlikda idrok etiladi. [4:385] Shu boisdan ham misralarda – Vatanga fidoyilik lirik “men”ning estetik ideali sifatida bo‘y ko‘rsatadi. Shoir o‘z ruhiy holatini badiiyatga singdirar ekan, *“Vatan so‘zin tustlamasdan tushlarga”*, inja tuyg‘ulararo kangul nigohi-la nazar tashlaydi. Natijada Vatan so‘zi to‘g‘ridan to‘g‘ri sarlavhaga ko‘chadi va mohiyatda teran aks etadi.

Ma‘lumki, davr va uning tabiatidagi evrilishlar lirik “men” ruhiyatiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Lirik qahramon Vatanning o‘tmishiga nazar tashlar ekan, unda tolei o‘ng kelmagan yurtini, jabrdiyda xalqini ko‘radi. Shundan shoir qalamidan:

*...Zarang zamin. Ko‘hna Yerqo‘rg‘on
jivir-jivir yomg‘ir sepalar.
O‘mganini tufroqqa berg‘on –
cho‘kka tushgan tepalar.*

*Erki – yalov, g‘ururi – yalov,
hilvirab to‘kilar basti.
Qatlarida bosqin va talov –
g‘animning qon sachragan dasti. [5:141]*

deya, uzoq o‘tmish bilan hamnafaslik hissini uyg‘otuvchi misralar to‘kiladi.

Aytishlaricha, har bir qush o‘z makonini sevadi, unga talpinadi. Ikrom Otamurod uchun bu makon – *“O‘mganini tufroqqa berg‘on – cho‘kka tushgan tepalar – Ko‘hna Yerqo‘rg‘on”* – bag‘rida necha ming yillik sirlarni asrab kelayotgan qadim maskan O‘zbekistondir.

Shoir nima haqda yozmasin – dala-dashtlarda qo‘y boqib o‘tgan bolaligi, baland-pastlab uchayotgan to‘rg‘aylar, ko‘klamdan salom yo‘llab, cho‘l shabbodasida

tovlanuvchi qo‘zigullar-u, chuchimomolar va momaqaymoqlar, ilk muhabbat izhorlari, azim Qashqadayroning to‘lqinlari, ajin bosgan yuzlari oftobdan qorayib ketgan alpkelbatli odamlarning turmush tarzi-yu, orzu-umidlari – barcha-barchasi uning Vatani – qalb ardog‘idagi sarhadsiz O‘zbekistondir.

She‘riyat aslida – ichki tashnalik! Ehtiyoj zamirida millat orzusi mushohada tanlovini tartibga soladi. Bu tanlov idrok nuqtai nazaridan badiiy tafakkur rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. V.G.Belinskiy ta‘biri bilan aytganda: “Poeziyadan maqsad nima? Tabiat estetik tuyg‘u ato etgan kishilar uchun bu masala juda muhim va ayni paytda juda mushkul tuyuladi. Poeziya o‘zidan tashqari bo‘lgan hech bir maqsadni ko‘zlamaydi. Bilimdagi haqiqatdek, harakatdagi ezgulik uning o‘zi maqsaddir”[6:109]. Haqiqatdan ham, “harakatdagi estetika” nazmning taqdirini belgilaydi. Unda jamiki fazilatlar, ba‘zan kamchiliklar botiniy suvratni, ijodkor tiynatini, hayot haqidagi eng maqbul qirralarni yaxlitlashtiradi. Ya‘ni asl tuyg‘ular realizmi voqelikni ong oqimi, iroda yo‘nalishi negizida tahlil qiladi. Ayni shu tuyg‘ular jamlanmasi poetik mutanosiblikni yuzaga keltiradi. Tabiatga taqlidan yaratilgan lirik “men” tushunchasi mohiyatida aks ettirilgan falsafaga fusunkor mazmun tortiq qiladi. Bu kabi falsafiy tushunchalar talqini Ikrom Otamurod ijodida bo‘rtib turadi. U o‘zining chin hayotini so‘zda yashayotgan shoirlardan deb biladi. Uning yuragidagi Vatan tuyg‘usi o‘zbek tili bilan mushtaraklik kasb etadi. Chunonchi, shoirning Vatani – ona tili:

...Ajdodlarim ruhin aylagan Vatan –
tilim,
qadimiyat poydor poyingga.
Dunyo kela-kelmish berib kelar tan –
tilim,
qadring makon tutgan joyingga... [3:72]

Uning nazdida, el va til – egizak, til va el – taqdiridosh. Shu bois eli tarixi to‘g‘risida qalam surganda tilini, tili haqida yozganda esa elini esdan chiqarmaydi. Shoir o‘z his-tuyg‘ulari, falsafiy mushohadalari zamirida lirik qahramon kechinmalarini shunday tasvirlaydi:

G‘ururim tumori faqat o‘zingsan,
tilim,
zinhor bo‘lmagin tilim-tilim.
Senga ko‘z tegib, gar
to‘zib-to‘zg‘isang,
vohkim,

so‘nib,

to‘nib borgaydir elim. [3:72]

Keyingi baytlarda shoir ona tilimizga munosabat orqali zamondoshimizga mustaqillikning qadriga yetish va uni qadrlash g‘oyasini uqtiradi. Zero, shoirning teran va falsafiy mushohadalariga ko‘ra:

Dillarga xokisor tomirlar yoygan –

Navoiyning lisoni –

shuur tilim.

istiqlol tufayli qayta tug‘ilganligini g‘urur va faxr hislari bilan e’tirof etarar ekan:

tafti otash –

hur tilim –

o‘zbek tilim... [3:72]

kabi satrlar bilan kitobxon qalbida mustaqil Vatanga mehr tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Istiqlol shoir Ikrom Otamurod ijodida yangi sahifalarni ochdi. Darhaqiqat, o‘tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar xalqimiz hayoti va dunyoqarashida tub burilishlar yasagan edi. Bu jarayon, tabiiyki, shoir ijodiga ham kuchli ta’sir etdi. Uning ijodiy fantaziasida hayot, dunyo, yaralish va yashashdan maqsad, o‘zlikni anglashga oid savollar paydo bo‘ldi. Shunga ko‘ra, shoir lirik qahramoni – “men”ining badiiy talqinida mustaqillikning asl mohiyatini ochishga qaratildi. Uning ijodida yurtdoshlarimizga in’om etilajak erkin va farovon turmushni qurish, uni asrab-avaylash hamda mustahkamlash g‘oyasi asarlarining bosh mavzuiga aylanadi. Bunday asarlar orasida shoirning “Sopol siniqlari” dostoni xarakterlidir. Asar voqealar emas, tuyg‘ular asosiga qurilgan. Shoir badiiy tasvir vositalardan mohirona foydalanish san’ati orqali hayotdagi voqelikni falsafiy tasvirlashda o‘ziga xos individual izlanishni namoyon etadi. Unda lirik qahramon “men”ning falsafiy mushohadasi, xotiralari, dardlarida insoniyatning o‘rni, yurtning boshiga tushgan kulfatlari, shuningdek, dunyo deb atalmish borliq voqeahodisalaridan iztirobga tushgan kalb tebranishlari qalamga olinadi. Asarda shoir ramziy tasvirlarga keng o‘rin beradi va o‘z navbatida bu tasvirlarga katta g‘oyaviy-badiiy vazifa yuklaydi. Voqelik Holat va Rang deb nomlangan qismlar orqali tasvirlanadi. Holatlar, o‘z navbatida, mumtoz adabiyotimiz sahifalaridan keng o‘rin olgan maqolat va hikoyat kabi namunalarni yodga soladi. Ma’lumki, maqolat nazariy yo‘nalishda bo‘lsa, hikoyatda o‘sha yo‘nalishlar amaliyotda o‘z ifodasini topadi. Mazkur dostonida Holatda falsafiy-nazariy yo‘nalishda hayot haqiqati ochib berilsa, Rangda esa kechagi va bugungi hayot manzaralari o‘z ifodasini topadi. Holatda shoir yozadi:

...Odam bolasi
bir xil hayot tarzidan,
qachondirkim bo‘lmasin, zerikadi.
Zerikish-
Boshqa shaklning istagi...
Ruhiyatda sodir bo‘lgan bu hodisa –
Yangi royishni,
...Sog‘inib yashaydi...
notanish manzillarni...
Har qandayin portlash, Avvalambor,
Odam bolasining ruhiyatida kechadi...
Yuragida tomir otadi...so‘ng,
keng maydonga qo‘nadi.[7:203-204].

Shoir o‘ziga xos obrazli vositalardan, ixcham o‘xshatish va ramzlardan, mumtoz adabiyotimiz va xalq rivoyatlaridagi an‘analardan foydalanib, Holat va Rang timsollarida zamondoshlarimizga mustaqillikning qadriga yetish va uni qadrlash g‘oyasini uqtirmoqda. Ayni satrlarda samimiylilik, tuyg‘ular tiniqligi, mazmun va shakl mutanosibligi, tasvirdagi tabiiylik va ichki drammatizm asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatini belgilaydi. Zero, bunday holat ma‘naviyati boy, ruhi tetik, doimo yangilikka intiladigan shaxslarda ro‘y beradi. Dunyo taraqqiyoti shu kabi insonlarning sa‘y-harakati tufaylidir. Dostondagi lirik qahramon – “men” shunday inson. U hayotdan ham, o‘zidan ham qoniqmaydi. O‘tmishning uzluksiz taraqqiyoti – ezgulik va yovuzlikning, yaxshilik va yomonlikning shiddatli kurashlari natijasi ekanligiga ishora qiladi. Uning tabiati, asta-sekin kitobxonga ham ko‘chadi. Rangda shunday satrlarni o‘qiymiz:

Mog‘orlaydi. Zang bosar. Muzlar,
Unutilar ko‘p yo‘laklari.
Tepalar qa‘ridagi izlar –
Xotira bo‘laklari.
Loyga botib siniqqan kamon –
Yurt ori deb to‘kilgan darddir.
Qo‘lda lochin tutgan pahlavon –
Qadrin quchib yiqilgan marddir.
ko‘milgan imondir, ko‘milgan tildir
tepalar...Ko‘milgan Vatandir.
Ko‘milgan yeldir, tepalar... [7:205].

Bu o‘rinda teran falsafiy mushohadalar, salmoqli poetik fikrlar bilan jo‘shqin his-tuyg‘ular uyg‘unlashib ketgan. Unda yurtimiz boshidan kechirgan yaqin tariximizdagi xunuk manzaralar tasviri aks ettirilgan. Zero, bunday asarlarda badiiy tasvir orqali millat turmush tarzi va mustamlakachilik siyosati yuzaga keltirgan ma‘naviy-axloqiy qarashlar o‘z ifodasini topadi.

Xulosa qilib aytganda, asl iste‘dodlarning voqea-hodisalarni badiiy idrok etishi va mohiyatni samimiyat ila ifodalashi ham yuksak bo‘ladi. Ikrom Otamurod – shunday ijodkor. Uning poeziyasi tom ma‘nodagi novator ijod mahsuli sifatida e‘tibordir. Shoir jo‘shqin ilhom, o‘tashin ehtiros bilan xalq qalbidagi tuyg‘ularni, eng ezgu orzu – istak va umidlarini tarannum etadi. Uning lirik qahramoni zamondoshlarimizning bugungi kuniga nazar tashlab, tarix saboqlaridan xulosa chiqarishga da‘vat etadi. Zero, shoir ijodining asl mohiyati va ahamiyati poeziyada insonning ichki hissiy dunyosini ochishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq. 2002; Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Xalq merosi, 2004; Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
2. Ikrom Otamurod. Sukut sadosi: She‘rlar, balladalar, dostonlar, tarjimalar. – Toshkent: Adabiyot, 2021.
3. Ikrom Otamurod. Huviyyat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
5. Ikrom Otamurod. Sopol siniqlari. – Toshkent: Ganjina, 2022.
6. Belinskiy V.G. Adabiy orzular. –T.: Adabiyot va san‘at, 1977.
7. Ikrom Otamurod. Muqaddar: She‘rlar va dostonlar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.